

ZAMONAVIY NASRDA AYOL RUHIYATI VA UNING BADIY IFODASI

Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol” hikoyasi misolida

Anvarjonova Shohidaxon Mansur qizi

TISU, 2- kurs talabasi.

Norkulova Shaxnoza Tulkinovna

TISU dotsenti (PhD) Termez (Uzbekistan)

shaxnoza_norkulova@tues.uz

ORCID: 0009-0008-7546-7613

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19488547>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol” hikoyasi misolida ayol obrazining murakkab va ko‘p qirrali ruhiyati badiiy tasvir orqali ochib beriladi. Muallif ayolning ichki kechinmalari, sabr-toqati, mehr-muhabbati hamda hayot sinovlariga bardoshlilik masalalarini chuqur yoritadi. Asarda ayol nafaqat oila timsoli, balki o‘z orzu-intilishlariga ega, ichki kurashlar bilan yashovchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi ayol qalbidagi iztirob va umidlarni ta’sirchan ifodalab, o‘quvchini uni yanada chuqurroq tushunishga undaydi va maqolada ushbu jihatlar tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek nasri, ona, ayol, obraz, mehnat, sabr toqat, “Ikki qalb uchrashuvi”, “Ayol”, “Ayol”da zamonaviy o‘zbek ayoli, AYOL obrazi, ruhiyat, ichki kechinmalar, sabr-toqat, mehr-muhabbat, fidoyilik, iztirob, sukut, orzu-armon, matonat, oila, jamiyat, ayol qalbi, tushunilish ehtiyoji, qadriyatlar, ichki kurash, baxt izlash, noziklik va kuch uyg‘unligi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ayol obrazini yoritishda Zulfiya Qurolboy qizi, Salomat Vafo, Hamid Ismoilov, Javlon Javliyev, Nazar Eshonqul, Xurshid Do‘stmuhammad kabi ijodkorlarning asarlari alohida ahamiyatga ega. Ularning ijodida ayol nafaqat ijtimoiy, balki falsafiy va psixologik jihatdan ham chuqur tahlil qilinadi. Bugungi kunda o‘zbek hikoyachiligida N. Eshonqul, J. Jovliyev, X. Do‘stmuhammadlar qatorida Zulfiya Qurolboy qizi hikoyachilik taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Zulfiya Qurolboy qizi ijodidagi mavzular ko‘lami keng, lekin yozuvchi ijodida ayol, ona, kelin obrazlari yetakchilik qiladi. Zulfiya Qurolboy qizi (Zulfiya Yo‘ldosheva) 1966 yil 15 sentyabrda Jizzax viloyatining Jizzax tumanida tug‘ilgan. Jizzax pedagogika institutining o‘zbek filologiyasi fakultetini bitirgan. Yozuvchining “Turmush”, “Yovuzlik farishtasi”, “O‘lim hech narsa emas” kabi kitoblari nashr qilingan. Bundan tashqari “Kasal qush”, “Xoliq amaki”, “Kuygan shahar”, “Ikki manzil”, “Muhabbat va nafrat”, “Ayol”, “Yozsiz yil”, “Yolg‘izlik qurboni”, “Qadimiy qo‘shiq”, “Quyosh nega chiqaveradi” kabi hikoyalari va “Mashaqqatlar girdobi”, “Armon asirasi” nomli romani mavjud. Ayni kunlarda “O‘zbekfilm” kinostudiyasida ishlaydi. Hikoyasi asosida “Chaqmoq chaqqan tunda” badiiy filmi suratga olingan. “Yozsi yil” badiiy filmining, “Fidoiylar serialining ssenariy muallifi. Hikoyalari asosida O‘zbek davlat drama teatrida “Ayol” spektakli sahnalashtirilgan. Yozuvchi ayol timsolini tasvirlar ekan ko‘pchilik e’tibor qaratmagan jihatlarini mahorat bilan tasvirlab beradi.

Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol” asari zamonaviy o‘zbek nasrida ayol ruhiyati, uning ichki kechinmalari va jamiyatdagi o‘rni masalasini chuqur yoritgan muhim asarlardan biridir.

Unda betob ayolning ichki kechinmalari, hohishlari va qoʻrquvlarini aks ettiradi. Hikoya devorlari oppoq rangdagi honadan boshlanadi. Tushunish qiyin emaski bu kasalxonada. Deraza oynasidan tushayotgan nur ayolning yuzida jilva qiladi, yumuq qovoqlarini qizartiradi, barmoqlaridagi uzukning olmos koʻzchalarida aks etadi. Ayol koʻzlarini ochadi. “Qanday yoqimli... Tiriklikning yana bir tongi otdi, - Seni qanchalar yaxshi koʻraman, quyosh!” hikoyaning aynan mana shu joyidan biz ayolning ahvoli ogʻirligi va har bir yangi kunga, yangi tongga shukrona qilayotganini va hali yashagisi kelayotgani sezishimiz mumkin. Ayol issiqlikni, oʻftobni yaxshi koʻradi har tong quyosh nurlarini simiradi, toʻyib-toʻyib nafas oladi.

Keyingi hafta surunkasiga Nazokatning harorati koʻtarilib, tushib turadi. Shifokor Nazokatning turmush oʻrtogʻi Shavkatni oldiga chaqirib ayolning ahvoli yaxshi emasligini, hozirligini koʻraverishini aytadi. Shifokor ayolning barcha qiyinchiliklari hali oldinda ekanligini aytadi. Nazokat har qancha betob boʻlmasin hech qachon eriga pardozsiz koʻrinmasdi. Har gal Shavkat kelganida oʻziga qarab olar erining koʻz oldida hamon oʻsha nozik hipcha bel ayol boʻlib qolishni xohlardi. Shavkat Nazokatga qaraganida yurak bagʻri ezilardi. Nazokat Shavkatni bu ahvolda kayfiyatsiz koʻrishni hohlamas men oʻladigan odamga oʻxshamayman-ku deb erini ovutishga harakat qilardi. Ayol oʻzi har qancha azob cheksa ham erini oldida buni sezdirmasdi. Oʻzi qiynalsa ham buni turmush oʻrtogʻiga sezdirmaslikka harakat qilardi. Buni isboti sifatida uni har gal yigʻlagisi kelganida labini qimtib qoʻyishini, Shavkat kelishidan oldin yuziga upa surib olishini aytsak boʻladi. Nazokat hayotni sevadi. Har tong quyoshni qarshi oladi. Quyosh ham har tong uni qarshi olayotgan Nazokat oynasini oldiga koʻtarilib uni qorachiqlarida jilovlanadi. Quyosh nuri unga hali hayot tugamaganligini anglatib turadigan vosita edi.

Nazokat hali hayotdan umidvor. Hali yashab ketishiga ishonadi, lekin qalbini qoʻrquv egallagan. Kechalari qattiq uxlab qolmaslik uchun radioni ovozi chiqarib qoʻyardi. Eri radioni oʻchirib qoʻyganida aslida bu radioni qattiq uxlab qolmaslik (aslida abadiy uyquni nazarda tutadi), uchun ataylab yoqib qoʻyishini aytadi. Nazirani ahvoli oʻgʻirlashib oyogʻi shishib ketganida u erini havotirga qoʻymaslik uchun oyoqlarini yashiradi, oʻrnidan turmaydi kun sayin yuzidagi nur soʻnib borar, oyogʻidan soʻng suyuqlik qorin boʻshligʻiga yigʻiladi.

Nazira qoʻlidagi uzukni shifokorga tutqazib, ichidagi suvni olib tashlashni iltimos qiladi. Ayol bu ahvolda oʻlishni oilasi farzandlari yodida bu tarzda qolishini erini koʻziga bu ahvolda koʻrinishni xohlamaydi. Hamshiralarga pul berib Shavkatni oldiga qoʻymasliklarini tayinlaydi. Bu harakati orqali ayol kechasi bilan qiynalishini sezib bu ahvolini eri koʻrishini xohlamaydi. Shavkat Nazirani koʻrish uchun kelganida Nazira uxlab yotardi shu oʻrinda Nazirani oila aʼzolari uchun naqadar qadrli ekanligini koʻrishimiz mumkin Shavkat bor kuchi bilan Nazirani kayfiyatini koʻtarishga uni bezovta qilmaslikka harakat qiladi Nazira har daqiqada farzandlarini turmush oʻrtogʻini oʻylaydi. Qiynalyotganini turmush oʻrtogʻiga sezdirmaslikka uni ham qiynamaslikka harakat qiladi shu oʻrinda ularning bir-birlariga naqadar mehrlil ekanligini Shavkat Nazirani naqadar qadrlashini koʻrishimiz mumkin.

Kechga borib Nazirani hiqichoq tutadi ikki-uch marta “hiq-hiq” etdi-yu birdan ichidan qandaydir suyuqlik otilib chiqdi endi operatsiyadan boshqa iloj qolmadi lekin kech boʻlgan edi. Yozuvchi shu oʻrinda hikoyaga yana quyosh tasvirini kiritadi.

Ertalabdan quyosh chiqdi lekin endi unga hech kim salom bermas, hech kim uni to'yib simirmas edi. Quyosh ham ayolning derazasiga ko'tarilib ayolni qovoqlarini qizartirishga harakat qilar lekin ayol ko'zini ochmasdi. Rangi oqarib ketgan qo'llari sovuq, endi quyosh faqatgina uni qo'lidagi uzukni ko'zchalarini raltirardi.

Yozuvchi bu hikoya orqali ayolning qadrini Shavkat Nazirani qanchalar yaxshi ko'rishi uni asrab avaylashini ochib beradi. Hikoya davomida Naziraning ichki tuyg'ulari ko'proq ochib beriladi. Yashashga bo'lga xohishi kasalxonadan chiqishi va baxtli hayot kechirishi singar tuyg'ular. Muallif quyosh orqali tiriklik ramziga ishora qilgan ayolning har tong quyoshni ko'rgandagi sevinchi yangi kunga shukrona keltirishi singari tuyg'ularni ifodalaydi. Zulfiya Qurolboy qizi sharq ayolini mana shunday tariflaydi to o'lguniga qadar, va hatto o'lim to'shagida yotganini bilsa ham oilasini o'ylaydigan sabrli ayol. Shavkat esa boshqa asarlardagi erkaklardan farqli ayolini qadrlaydigan unga g'amxo'rlik qiladigan, doimo oilasi oldiga shoshadigan, ayolini asrab avaylaydigan oila boshlig'i sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi bu asar orqali jamiyatda hamma ham bir xil emasligi, kimdir hayotdan to'ygan, yashashga umidi yo'q, charchagan bo'lsa yana shunday toifa odamlar borki ertalab ko'zini ochganiga, yana bir tong quyosh nurini, tongni ko'rganiga shukrona keltirib, betob bo'lsa ham hayotga umid ko'zlari bilan shukur qilib, vaqtni qadriga yetib baxtli yakun xohlab yashaydi. Ayol ahvolidan, boshiga kelgan tashvish-u kasalliklardan hech qachon nolimaydi, asarning biror-bir satrida ayolning shu darajada qiynalsa ham noligani yoki taqdiriga ko'ngani, umidsiz bo'lib qolganini uchratmaymiz. Ayol so'nggi kunlarini yashayotganini bilsa ham ertangi kunga, sog'ayishiga umid qilib ahvolidan nolimay yashaydi. Shavkat ham hech qachon ayolining kasalligidan nolimaydi, ayolini betobligida unga g'amxo'rlik qiladi, doimo oldida bo'ladi. Muallif bu asar orqali nafaqat sharq ayolini balki sharq erkaklarini ham ulug'laydi desak ham xato bo'lmaydi. Chunki ayoliga bu darajada mehribonlik qiladigan, ayoli betob bo'lsa unga unga g'amxo'rlik qiladigan va bunday qiyin vaziyatlarda ayolidan ortib farzandlariga ham vaq ajratidan erkaklar sharq erkaklaridir. Yozuvchi asar nomini "Ayol" deb nomlagan bo'lsa-da, bu nom ostida aslida mana shunday kichik detallar orqali nafaqat ayollarga, ularning sabr toqatiga balki sharq mamlakatlarida manashunday erkaklar ham borligini shu kichkinagina hikoya orqali tasvirlab beradi.

"Ayol" asarida yozuvchi ayol obrazini oddiy tashqi tasvir bilan cheklab qo'ymaydi.

Aksincha, uning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, orzu-armonlari va dardlarini badiiy vositalar orqali ochib beradi. Asarda ayol — bu nafaqat oila bekasi, balki murakkab ruhiyat egasi bo'lgan inson sifatida gavdalanadi.

Asarning bosh g'oyasi — ayolning qalbini tushunish, uning sabr-toqati va ichki kuchini qadrlashdir. Muallif ayolning ko'pincha ko'zga ko'rinmaydigan dardlari, sukut ortidagi iztiroblari borligini ko'rsatadi. U tashqi tomondan kuchli ko'rinisa-da, ich-ichidan nozik va mehrga muhtoj.

Asarda ayolning sukutdagi dardlari, yashirin ko'z yoshlar, armon va umidlari, sevgi va fidoyiligi juda ta'sirchan tarzda yoritiladi.

Yozuvchi ayol qalbidagi qarama-qarshi tuyg'ularni — sabr va isyon, mehr va ranj, umid va tushkunlikni mohirlik bilan uyg'unlashtiriladi.

Asardagi ayol obrazi zaif emas. U hayot sinovlariga bardosh bera oladigan, oilasi va yaqinlari uchun o‘zini fido qiladigan kuchli shaxs sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, u ham oddiy inson – u ham baxtli bo‘lishni, tushunilishni istaydi. Asarning tili sodda, ammo juda ta’sirchan. Unda ichki monologlar, psixologik tasvirlar, ramziy ifodalar keng qo‘llanilgan. Bu esa kitobxonga ayol ruhiyatini yanada yaqinroq his qilish imkonini beradi.

“Ayol” asari orqali Zulfiya Qurolboy qizi ayolning haqiqiy qiyofasini — uning sabrli, mehribon, ammo shu bilan birga ichki iztiroblarga to‘la murakkab qalb egasi ekanini ko‘rsatib beradi. Bu asar har bir o‘quvchini AYOLga boshqacha nigoh bilan qarashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zulfiya Qurolboy qizi. Ayol hikoyasi.
2. Yetim uy hikoyasi Toshkent, “Yoshlik” jurnali 2016-yil 3-son
3. Kasal qush asari “Sharq yulduzi” jurnali 2013-yil 1-son